

**INGLIZ VA O'ZBEK FOLKLORIDA BOLALIK TASAVVURINING TIL VA MADANIYATDAGI
IFODASIANNOTATSIIYA**

Alibayeva Munisa Rustamaliyevna

O'zbekiston Davlat Jahon tklari universiteti. ingliz tili-lingvistika,
2 bosqich magistranti**Annotatsiya**

Maqolada konsept, konseptosfera va folklor diskursi atamalarining nazariy mazmuni o'zaro bog'liq tizim sifatida tahlil qilinadi. Tilshunoslik, lingvokulturologiya hamda folklorshunoslik doirasida shakllangan qarashlar qiyosiy ko'rib chiqilib, konseptning oddiy mantiqiy tushunchadan farqi, konseptosferaning milliy madaniy xotira bilan aloqasi, folklor diskursining kollektiv nutq faoliyati sifatidagi tabiati yoritiladi. Tahlil davomida terminologik tarix, mazmuniy qatlam, kommunikativ vazifa, aksiologik yuk, janriy regulyativlik singari mezonlar markazga chiqarildi. Folklor matni, folklor bilimi va folklor kommunikatsiyasi bir chiziqda emas, balki yagona semantik maydon ichida harakat qiluvchi hodisalar sifatida talqin qilindi.

Kalit so'zlar: konsept, konseptosfera, folklor diskursi, lingvokulturologiya, kollektiv xotira, milliy madaniyat, verbalizatsiya, janr, nutq faoliyati, aksiologiya, folklor tafakkuri, diskursiv model

KIRISH

Gumanitar tafakkur tarixida konsept atamasi til, tafakkur va madaniyat kesishgan nuqtada shakllangan tayanch birliklardan biri sanaladi. Mazmuniy jihatdan u faqat so'z ma'nosi yoki mantiqiy tushuncha bilan tenglashtirilmaydi. Konseptda tarixiy tajriba, madaniy assotsiatsiya, baholash mezoni, jamoaviy xotira izi va individual idrok qatlamlari birlashadi. Askoldov konseptni fikriy hosilaning embrional shakli sifatida anglatgan edi, keyingi tadqiqotlar ana shu yondashuvni yanada kengaytirib, konseptni madaniyatning operativ semantik yadrosi darajasiga olib chiqdi¹.

Konseptlar alohida holda yashamaydi. Ular til egalarining tarixiy tajribasi, diniy tasavvurlari, badiiy merosi, kundalik hayot me'yorlari hamda folklor amaliyoti bilan bog'liq holda yirik semantik tarmoqlarni hosil qiladi. Lixachyov konseptosfera atamasini milliy tilning madaniy jamg'armasi bilan bog'lagan holda qo'llagan va til boyligi ortida turgan ma'no imkoniyatlari yig'indisini konseptosfera deb atagan². Ana shu nuqtada til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy ongini saqlovchi qudratli omborga aylanadi.

Folklor materiali konsept va konseptosfera muammosini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Sabab, folklorda qadimiy stereotiplar, kollektiv baholar, axloqiy me'yorlar, mifologik qarashlar va ramziy model birikmalari barqaror holda saqlanadi. Folklor faqat matnlar to'plami emas. Unda ijrochi, tinglovchi, vaziyat, janr, marosim va ijtimoiy vazifa birgalikda ishlaydi. Ben-Amos folklori "kichik guruhlardagi badiiy kommunikatsiya" sifatida talqin qilganida masala markaziga aynan kommunikativ jarayonni olib kirgan edi³.

Folklor diskursi atamasi ana shu jarayoniy tabiatni ilmiy muomalaga aniqroq olib kiradi. Matnning o'zi, mazmunning o'zi yoki janrning o'zi yetarli ko'rsatkich bermaydi. Nutq faoliyati, jamoaviy bilim

¹ S.A. Askoldov, "Konsept i slovo", M., Akademiya, 1997, 267-b

² D.S. Lixachyov, "Konseptosfera russkogo yazyka", M., Akademiya, 1997, 287-b

³ D. Ben-Amos, "A Definition of Folklore: A Personal Narrative", *Estudis de Literatura Oral Popular*, 2014, 9-b

uzatilishi, estetik qayta ishlash, vaziyatga mos semantik aksentlarning almashinuvi, ijrochi va qabul qiluvchi o'rtasidagi ijtimoiy masofa, marosimiy yoki maishiy vazifa singari omillar tahlil markaziga keladi. Folklor diskursi nazariyasi ana shu qatlamlarni yagona modelda ko'rish imkonini beradi.

Mavzu dolzarbligi ham nazariy, ham metodik omillar bilan belgilanadi. Bir tomondan, konsept va konseptosfera atamaları ko'p ishlatilgani holda ularning folklor bilan bog'liq qatlamlari ko'pincha qorishib ketadi. Ikkinchi tomondan, folklor diskursi ayrim ishlarda matnga tenglashtiriladi, ayrim ishlarda ijtimoiy kommunikatsiya darajasida talqin qilinadi. Ana shu terminologik tebranish ilmiy aniqlikni pasaytiradi. Mazkur maqola konseptni ma'no birligi, konseptosferani semantik makon, folklor diskursini esa ana shu makonning nutqiy va madaniy faollashuv shakli sifatida izohlashga qaratildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Konsept muammosining dastlabki qatlamida terminning o'zi turadi. Demyankov konsept va tushuncha terminlarini tarixiy dublet sifatida ko'rsatadi, lekin zamonaviy ilmiy muomalada konseptning semantik hajmi kengayganini qayd etadi. Ana shunday talqinda konsept tayyor, muzlatilgan mantiqiy kategoriya emas, balki tugallanmagan, idrok jarayonida yangidan ochiladigan mazmun maydoni sifatida namoyon bo'ladi⁴. Asoyan 1990-yillarda "madaniyat kategoriyalari" o'rnini "konsept" egallaganini ko'rsatib, lingvokulturologiyada kalit so'zlar orqali madaniyatni anglash tendensiyasi kuchayganini ta'kidlaydi⁵. Stepanov konseptni madaniyatga kirish shakli sifatida ko'radi. Ana shu yondashuvda konsept individual ong bilan kollektiv madaniyat orasidagi semantik ko'priikka aylanadi. Keyingi sharhlarda Stepanov modeli ichki shakl, aktual belgi va qo'shimcha belgi qatlamlari bilan tavsiflanadi, mazmunning ko'p qavatlilik ana shu o'rinda yaqqol ko'rinadi. Cheng Jiaqi Stepanov nazariyasini sharhlar ekan, konseptning iyerarxik tabiatini va undagi madaniy tajriba to'planishini alohida qayd etadi⁶.

Konseptosfera masalasi Lixachyov nomi bilan bog'liq ilmiy yo'nalishni yuzaga chiqardi. Keyingi tadqiqotlar mazkur atamani kognitiv makonning tuzilgan ko'rinishi sifatida izohladi. Kadachiyeva va Aliyeva konseptosfera millat madaniyati, adabiyoti, dini, ilmi, folklori va tarixiy tajribasi ta'sirida shakllanishini ko'rsatadi. Mazmunga ko'ra konseptosfera alohida konseptlarning oddiy yig'indisi emas, balki tizimlilik, bog'liqlik va ierarxiya tamoyillariga bo'ysunuvchi semantik makondir⁷. Plotnikova konseptosferani til manzarasining tematik guruhlangan xotira birliklari maydoni sifatida talqin qilib, mikro-konseptosfera darajasini ham ajratadi⁸.

Lingvokulturologik adabiyotlar konseptning verbal ifodalanish masalasini ham chuqur ishlagan. Ryabkova konsept til va madaniyat oralig'ida joylashgan birlik bo'lib, leksik va frazeologik birliklar, maqol-matallar, so'z birikmalari, grammatik konstruksiyalar hamda diskurs bo'laklari orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi⁹.

⁴ V.Z. Demyankov, "Termin «kontsept» kak element terminologicheskoy kultury", Sankt-Peterburg, Asterion, 2011, 9-b

⁵ Yu.A. Asoyan, "Rossiyskie praktiki issledovaniya kontseptov: ot «kategoriy» kultury k «konseptosfere» i «semantike ponyatiy»", Sankt-Peterburg, Asterion, 2011, 34-35-b

⁶ Ch. Jiaqi, "Lingvokulturologicheskoe opisanie kontseptta derevnya v rasskazax I.A. Bunina", Gumanitarnyy nauchnyy vestnik, 2020, 183-b

⁷ X.M. Kadachiyeva, J.S. Aliyeva, "Konseptosfera kak sposob strukturovaniya kognitivnogo prostranstva", Filologicheskoe nauki. Voprosy teorii i praktiki, 2015, 64-66-b

⁸ N.V. Plotnikova, "Conceptosphere and Concept in Modern Linguistics", Vcheni zapysky Tavriiskoho natsionalnoho universytetu, 2020, 91-b

⁹ E.S. Ryabkova, "Lingvokulturnyy kontsept kak element yazyka i kultury", Almanax sovremennoy nauki i obrazovaniya, 2012, 187-188-b

Diskurs nazariyasida ijtimoiy vaziyat va nutq o'rtasidagi aloqani izohlash markaziy masalalardan biri sanaladi. Van Dijk kontekstni kommunikativ vaziyatning ishtirokchilar ongida shakllangan modeli sifatida izohlaydi. Ana shu nazariy asos diskursni matndan tashqariga olib chiqib, vaziyat, bilim, ideologiya, qadriyat va ijtimoiy rol bilan bog'laydi¹⁰. Folklor materialiga nisbatan qo'llanganda mazkur yondashuv ijro, tinglov, marosim, ijtimoiy maqom va kollektiv xotira omillarini bir tahliliy tizimga birlashtiradi.

Folklor diskursining bevosita tavsifiga oid ishlarda kommunikativ vazifa, kollektivlik va normativlik ustuvor ko'rsatkich sifatida ko'rinadi. Drujina folklor diskursining maqsadini kollektiv tajribani saqlash va uzatish bilan bog'laydi; qadriyat qatlami sifatida an'anaviylik, kollektivlik, ideal dunyoqarash va normativlikni ajratadi¹¹. Abduvahabova folklor nutqini jamiyat ehtiyojiga mos keluvchi, estetik qayta ishlangan an'anaviy matn sifatida sharhlaydi va uning kollektiv bilimni tashishini ta'kidlaydi¹².

Folklorning konseptual tuzilishini yorituvchi tadqiqotlar mavzuga yana bir qatlam qo'shadi. Hamidova rus folklori konseptosferasini murakkab antropotsentrik tuzilma sifatida ko'rsatib, "Tabiat", "Jamiyat", "Oila" singari subkonseptosferalarni ajratadi hamda markazda "Inson" konsepti turishini qayd etadi¹³. Bronner esa raqamli davr fonida Ben-Amos ta'rifini qayta ko'rib chiqib, folklori jarayon va amaliyot nuqtai nazaridan ham anglash zarurligini ko'rsatadi¹⁴. Ana shu qarashlar folklor diskursini qotib qolgan matn emas, o'zgaruvchan, lekin an'anaviy yadroni saqlovchi madaniy kommunikatsiya modeli sifatida ko'rishga imkon beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA TAHLIL

Maqola konseptual-tahliliy yo'nalishda yozildi. Asosiy diqqat uch terminning ichki nisbatini aniqlashga qaratildi. Birinchi bosqichda konsept atamasining semantik doirasi ajratildi, mantiqiy tushuncha, obrazli mazmun, qadriyat va madaniy xotira bilan bog'liq qatlamlar farqlandi. Ikkinchi bosqichda konseptosfera individual birliklar yig'indisi emas, balki tartiblangan semantik tizim sifatida ko'rib chiqildi. Uchinchi bosqichda folklor diskursi matn markazli emas, kommunikativ markazli model sifatida talqin qilindi.

Tahlil jarayonida qiyosiy-deskriptiv usul, terminologik sharhlash, mazmuniy qatlamlarga ajratish, diskursiv belgilash va lingvokulturologik sintez usullaridan foydalanildi. Qarashlar faqat nazariy darajada sanab o'tilmadi. Har bir atama qanday ilmiy vazifa bajarishi, folklor materialini o'rganishda qaysi birligi bilan qulayroq ishlashi, qaysi nuqtada boshqa atama bilan kesishishi ham aniqlandi. Ana shunday yo'l terminlar oralig'idagi mavhumlikni kamaytiradi.

Yakuniy modelda konsept minimal semantik va aksiologik yadro sifatida, konseptosfera ana shu yadrolarning milliy madaniyat doirasida tartiblangan makoni sifatida, folklor diskursi esa mazmun, ijro, qabul va ijtimoiy vaziyatni birlashtiruvchi faol kommunikativ maydon sifatida belgilandi. Mazkur yondashuv folklor matnlaridagi obraz, formula, janr va ijtimoiy vazifani bir butun ilmiy obyekt darajasida ko'rishga yordam beradi.

¹⁰ T.A. van Dijk, "Discourse and Context: A Sociocognitive Approach", Cambridge, Cambridge University Press, 2008, 22-23-b

¹¹ T.A. Druzhyna, "Communicative Features of the Folklore Discourse", Science and Education a New Dimension, 2016, 88-89-b

¹² M. Abduvahabova, "Communicative Possibilities of Folkloric Discourse, Theory of Speech Activities, on the Example of H. Grice's Maxims", O'zMU xabarlar, 2022, 215-b

¹³ M.K. Xamidova, "Features of the Reflection of the Ethnolinguistic Picture of the World in Folklore", Oriental Renaissance, 2021, 487-488-b

¹⁴ S.J. Bronner, "Toward a Definition of Folklore in Practice", Cultural Analysis, 2016, 6-7-b

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tahlil natijalari uch tayanch xulosaga olib keldi. Birinchi xulosa, konseptni oddiy “tushuncha” bilan almashtirish ilmiy aniqlikni toraytiradi. Konsept tarkibida faqat denotativ ma’no yashamaydi; unda tarixiy xotira, hissiy baholash, madaniy tajriba va jamoaviy stereotip ham saqlanadi. Folklor materiali bilan ishlash paytida ana shu xususiyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, negaki maqol, topishmoq, afsona, ertak yoki marosim qo’shig’idagi birliklar ko’pincha lug’aviy darajadan ko’ra kengroq semantik yukni olib yuradi. Cheng Jiaqi sharhlagan Stepanov modeli konseptning ichki shakl, asosiy belgi va qo’shimcha belgi qatlamlarini ko’rsatadi, folklor tili ana shu qatlamlarni bir paytning o’zida ishga tushiradi¹⁵.

Ikkinchi xulosa, konseptosfera folklor mazmunini tartibga soluvchi yuqori sathli modeldir. Folklorda “oila”, “yo’l”, “uy”, “tabiat”, “ajdod”, “muqaddas”, “sinov”, “mehnat” singari konseptlar alohida yashamaydi. Ular o’zaro bog’langan semantik tarmoq hosil qiladi. Hamidova keltirgan antropotsentrik modelda markazga “inson” konsepti qo’yiladi, qolgan subkonseptosferalar ana shu markaz bilan aloqada ishlaydi¹⁶. Folklor matnlaridagi baholash, qahramonlar harakati va janriy formula tahlili ham ko’pincha konseptosferadagi markaz va periferiyani anglash orqali aniqlashadi. Plotnikova ta’kidlagan mikro-konseptosfera darajasi janrlar bo’yicha mahalliy semantik uyalar mavjudligini ko’rsatadi¹⁷.

Uchinchi xulosa, folklor diskursi folklor matnining faol yashash shaklidir. Matn, ijrochi, tinglovchi, vaziyat va ijtimoiy me’yorlar birgalikda ishlamasa, folklor mazmuni to’liq ochilmaydi. Abduvahobova folklor nutqini estetik qayta ishlangan an’anaviy matn deb belgilaydi, jamoa ehtiyoji va kollektiv bilim bilan bog’laydi. Bronner folklori amaliyot sifatida qayta o’qishni taklif etib, jarayoniylikni kuchaytiradi.

Tahlil birligi	Asosiy mazmun	Folklordagi ko’rinish	Ilmiy vazifa
Konsept	Minimal ma’no va qadriyat yadrosi	timsol, formula, ramz, janriy kalit so’z	ma’no qatlamini ochish
Konseptosfera	O’zaro bog’langan konseptlar tizimi	“inson”, “oila”, “tabiat”, “jamiyat” kabi semantik uyalar	milliy va janriy semantik xaritani tiklash
Folklor diskursi	Kollektiv nutq va estetik kommunikatsiya maydoni	ijro, tinglov, marosim, vaziyat, rol taqsimoti	mazmunning ijtimoiy faollashuvini ko’rsatish

XULOSALAR TAVSIYALAR

Olib borilgan tahlil konsept, konseptosfera va folklor diskursi o’rtasida qat’iy ichki bog’liqlik mavjudligini ko’rsatdi. Konsept folklor mazmunining eng kichik, lekin eng zich ma’no birligi sifatida ishlaydi. Unda so’zning lug’aviy qatlami bilan birga tarixiy tajriba, hissiy baholash, mifologik iz va ijtimoiy stereotip to’planadi. Konseptosfera ana shu birliklarning milliy madaniyat, diniy tasavvur, ijtimoiy xotira va janriy an’ana asosida tuzilgan semantik makonidir. Folklor diskursi esa mazmunning real kommunikativ hayoti bo’lib, ijro, qabul, vaziyat va kollektiv me’yor bilan belgilanadi. Demak, folklori faqat matn sifatida o’qish yetarli emas; uni konseptual va diskursiv maydon ichida ko’rish zarur.

¹⁵ Ch. Jiaqi, “Lingvokulturologicheskoe opisanie kontsepta derevnya v rasskazax I.A. Bunina”, Gumanitarnyy nauchnyy vestnik, 2020, 183-b

¹⁶ M.K. Xamidova, “Features of the Reflection of the Ethnolinguistic Picture of the World in Folklore”, Oriental Renaissance, 2021, 487-b

¹⁷ N.V. Plotnikova, “Conceptosphere and Concept in Modern Linguistics”, Vcheni zapysky Tavriiskoho natsionalnoho universytetu, 2020, 91-b

Kelgusi izlanishlarda birinchi navbatda milliy folklor materiallari asosida mikro-konseptosferalar xaritasini tuzish maqsadga muvofiq. Ertak, maqol, marosim qo'shiqlari, topishmoq va afsona janrlari bo'yicha alohida semantik uyalar ajratilsa, janrlararo umumiy va farqli konseptlar aniq ko'rinadi. Ikkinchi tavsiya, folklor diskursini o'rganishda matn bilan cheklanmasdan, ijro vaziyati, auditoriya tarkibi, marosimiy sharoit va kommunikativ rol taqsimotini ham tahlilga qo'shish kerak. Uchinchi tavsiya, lingvokulturologik tahlilda konseptni faqat leksik birlikdan qidirmaslik lozim; formula, takror, ritm, obraz, marosimiy amal va ramziy detal ham konsept tashuvchisi bo'la oladi.

Nazariy jihatdan mazkur yondashuv folklorshunoslik, tilshunoslik va madaniyatshunoslik oraliq'idagi bo'shliqni qisqartiradi. Amaliy jihatdan esa folklor matnlarini sharhlash, dars jarayonida tahlil qilish, milliy madaniyat kodlarini sistemalashtirish hamda zamonaviy diskurslar bilan qiyoslashga mustahkam asos yaratadi. Folklor ko'hna xazina bo'lib javonda chang bosib yotmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Askoldov S. A. Konsept i slovo // Russkaya slovesnost. Ot teorii slovesnosti k strukture teksta. Antologiya. M.: Akademiya, 1997. S. 267–279.
2. Ben-Amos D. A Definition of Folklore: A Personal Narrative // Estudios de Literatura Oral Popular. 2014. № 3. P. 9–28.
3. Bronner S. J. Toward a Definition of Folklore in Practice // Cultural Analysis. 2016. Vol. 15. No. 1. P. 6–27.
4. Demyankov V. Z. Termin «kontsept» kak element terminologicheskoy kultury // Kontsepty kultury i kontseptosfera kulturologii. SPb.: Asterion, 2011. S. 9–27.
5. Druzhyna T. A. Communicative Features of the Folklore Discourse // Science and Education a New Dimension. Philology. 2016. Vol. IV. Issue 104. P. 88–90.
6. Jiaqi Ch. Lingvokulturologicheskoe opisanie kontseptu derevnya v rasskazax I.A. Bunina // Gumanitarnyy nauchnyy vestnik. 2020. № 3. S. 182–185.
7. Kadachiyeva X. M., Aliyeva J. S. Kontseptosfera kak sposob strukturirovaniya kognitivnogo prostranstva // Filologicheskie nauki. Voprosy teorii i praktiki. 2015. № 6. Ch. 1. S. 64–66.
8. Lixachyov D. S. Kontseptosfera russkogo yazyka // Russkaya slovesnost. Ot teorii slovesnosti k strukture teksta. Antologiya. M.: Akademiya, 1997. S. 280–287.
9. Plotnikova N. V. "Conceptosphere" and "Concept" in Modern Linguistics // Vcheni zapysky Tavriiskoho natsionalnoho universytetu imeni V. I. Vernadskoho. Seriya Filologiya. Sotsialni komunikatsii. 2020. T. 31. № 1. S. 91–96.
10. Ryabkova E. S. Lingvokulturnyy kontsept kak element yazyka i kultury // Almanax sovremennoy nauki i obrazovaniya. 2012. № 4. S. 187–188.
11. Stepanov Yu. S. Konstanty. Slovar russkoy kultury. M.: Yazyki russkoy kultury, 1997. 824 s.
12. van Dijk T. A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.